
Yangiariq mahallasida saharlikka osh damlab tarqatilmoqda

Bejizga Ramazon oyi oylarning sultoni deyilmaydi, chunki bu oy mehr-muruvvat, xayr-saxovat, ibodat va ezgu amallar ko'plab qilinadigan oy. Qo'shtepa tumanidagi Yangiariq mahallasida saxovatpesha xomiy tomonidan Ramazon oyi boshidan buyon har kuni saharlikka 90 kilogram osh damlab tarqatilmoqda.

Ushbu saharlik oshi mahalla ahli hamda ushbu hududda tungi navbatchilikda ishlaydigan ishchi-xizmatchilar uchun tayyorlanmoqda. Qolaversa, hududda yashovchi kam ta'minlangan, ijtimoiy ximoyaga muhtoj keksalar, bir joyda yotib qolgan bemorlarning xonadonlariga ham saharlik osh tarqatilmoqda.

2023-04-10 14:53:03